

SURXONDARYO DIALEKTAL LEKSEMALARINING O'XSHASH VA FARQLI XUSUSIYATLARI

(Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Xo'janqon, Zang Gilambob, Zartepa, Ulug'bek va Yangiobod mahallari dialektlari misolida)

Berdiyeva Gulmira Xamro qizi

Termiz davlat universiteti

Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi magistranti

gulikhamro@gmail.com/+998938490426

Annotatsiya: Ushbu maqola Angor tuman aholisi nutqidagi leksik-semantik va fonetik farqlanish va o'xshashliklarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tilning leksik boyishiga doir qarashlar aks etgan

Kalit so'zlar: Etnik yaqinlik, izoglossa, leksik differentsiatsiya, fonetik o'zgarish, izoleksema, izofon.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу лексико-семантических и фонетических различий и сходств в речи жителей Ангорского района. В ней отражены взгляды на лексическое обогащение языка.

Ключевые слова: этническая принадлежность, изоглосса, лексическая дифференциация, фонетические изменения, изолексема, изофон.

Abstract: This article analyzes the lexical, semantic, and phonetic differences and similarities in the speech of residents of the Angor region. It reflects views on the lexical enrichment of the language.

Key words: ethnicity, isogloss, lexical differentiation, phonetic changes, isolexeme, isophone.

Bugungi kunda adabiy til masalasini kun mavzusiga aylantirar ekanmiz, uning boyish manbasi bo'lgan sheva va lahjalarni ham e'tibordan chetga qochirmaslik kerak. So'nggi paytlarda o'zbek shevalari tadqiqi bo'yicha qilingan izlanishlar birlamchi mavzuga aylanib bormoqda. Negaki, o'zbek tilining leksik qatlam boyligi va milliy tilning saqlab qolinishi ichki qatlam hisoblangan shevalarga bog'liq bo'lib qoldi.

Surxondaryo dialektlari xususida S.Rahimov, S.Ashirboyev, M.Xolova, X.Fayziyeva va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

O'zbek tili xilma-xil dialekt va shevalarni o'z ichiga olishi bilan xarakterli ekanligi tilshunos olimlarimiz tomonidan ko'p aytilgan. Shu nuqtai nazardan Surxondaryodagi o'zbek aholisining tili ham yaxlit bir butun shevani tashkil etmaydi. Chunki bu yerda turli shevalarni uchratish mumkin. Shunga kura Surxondaryodagi o'zbek shevalarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- 1) j-lovchi o'zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
- 2) y-lovchi o'zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
- 3) ikki tilda so'zlashuvchi shevalar.¹

j-lovchi va y-lovchi o'zbek shevalarining hammasi o'zining til xususiyatlari jihatidan butun hudud bo'yicha bir xil emas. Xususan, Xo'janqon va Zartepa mahallalari hududiy jihatdan bir-biriga nisbatan uzoq geografik nuqtada joylashgan. Ammo hudud aholisi etnik jihatdan bir-biriga qarindoshligi masalasi bor. Leksemalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'xshashliklar borligini ko'rishimiz mumkin.

t/r	Adabiy tildagi varianti	Xo'janqon MFY	Zartepa MFY
1.	buloqi	natva	lotiva
2.	o'qlov	o'xloq	o'xlog'
3.	igna	niyna	iyna
4.	xokandoz	musurolgich	musurogich
5.	oftoba	optova	optuva
6.	kirza etik	gurzivoy etik	gerzavoy etik
7.	nimcha	askarcha	askarcha

Yuqorida keltirilgan dialektal leksemalarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'xshash jihati ko'pligi, farqlar esa asosan fonetik jihat (izofonema) bilan bog'lanishini anglash qiyin emas, albatta. Fonetik farqlar ham asosan bir-biriga yaqin fonemalar (n-l, q-g', o-u) va ba'zi tovushlar ishlatilmasligi (n, l) va bir-biridan farqlanuvchi fonemalar (e-u) o'rtasida sodir bo'lgan. Bunday hodisa tilsunoslikda izofonema deb yuritiladi.

Mazkur atama ostida turli sheva va lahjalar uchun umumiylik kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo'llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, —[j]lashish

¹ S.Rahimov. O'zbek tili. Surxondaryo shevalari (fonetika va leksika). T.: "Fan" nashriyoti-1985. B-13.

hodisasi faqat qipchoq lahjalaridagina mavjud bo‘lmasdan, qorluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur hodisani (ya‘ni —[j]lashishni) o‘sha areallarning **izofonemasi** yoki **fonetik izoglossasi** deb hisoblash mumkin.²

Shuningdek, jadvalda aks etmagan farqlar ham uchraydi. Xususan, ikki mahalla dialektal leksemalarida leksik differensiyani ham kuzatish mumkin. Xo‘janqon mahalla aholisida uchraydigan *qarako‘pti* leksemasi adabiy tilda uchramasligi kuzatildi. Shuning uchun izohlash talab etiladi: qarako‘pti—tuproq suvlanganda namlanib, ammo loyga aylanmay qolgan qismi. Asosan urug‘ ekilganda birinchi suvlanish paytida qo‘llaniladi. Ushbu leksema Zartepa mahalla aholisi nutqida farqli aytiladi. Dala o‘quv amaliyoti davomida *qarapushta* tarzida qo‘llanishi uchradi. Bunday hodisa fanda izoleksema atamasi bilan qo‘llaniladi.

Izoleksemalar deganda bir tushunchani anglatuvchi har xil hududda qo‘llaniladigan leksemalar, ya‘ni so‘zlar tushuniladi. Masalan, *shovla* so‘zi (taom nomi) Surxondaryoning Angor tumanida *shulla* tarzida, Sho‘rchi, Oltinsoy hududlarida esa *jalama* tarzida qo‘llaniladi.³

Arel lingvistika yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hududlar va etnik yaqinlik dialektizmlar o‘rtasida o‘xshashliklar bialn bir qatorda farqliklarni ham keltirib chiqaradi. Adabiy tilning rivojlanib, leksik qatlami boyib borishi uchun esa shevalar tadqiqi olib borilishi, u tilning bir asosiy bo‘g‘ini ekanligini e‘tibordan chetda qoldirmaslik darkor. Sheva ayni damda kecha va bugun o‘rtasida ajralmas muhim ko‘prikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Rahimov. O‘zbek tili. Surxondaryo shevalari (fonetika va leksika).T.:”Fan” nashriyoti-1985
2. Q.Olloyorov. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. Toshkent-2020
3. N.Kurbannazarova. Areal lingvistika. Termiz.”Surxonashr”-2024

² Q.Olloyorov. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. Toshkent-2020. B-32.

³ N.Kurbannazarova. Areal lingvistika. Termiz.”Surxonashr”-2024. B-57